Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

Zarafshon

2026-yil 9-sentabr, chorshanba,
79 (24.259)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz info@zarnews.uz

O‘zbek xalq maqoli

Xalq do‘stligi - yurt boyligi



“BIRINCHI KURS MAKTABI” — TALABALIK SARI ILK QADAM

7-sentabrdan barcha oliy ta’lim muassasalarining birinchi bosqich talabalari uchun darslar boshlandi. Yangi o‘quv yilining ilk kunida oliy ta’lim muassasalarida bayram tadbirlari bo‘lib o‘tdi.

Xususan, Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida mustaqilligimizning 35 yilligiga bag‘ishlangan “Talabalikka bag‘ishlov” tadbiri o‘tkazildi. Institut rektori, professor Shavkat Hasanov va Qishloq xo‘jaligi vaziri o‘rinbosari Jamshid Abduzuxurov yoshlarni talabalik baxti, yangi o‘quv dargohi bilan qutlab, kelgusi o‘qishlariga omad tiladi.

Institutda “Birinchi kurs maktabi” loyihasi doirasida “Mustaqillik darsi” o‘tildi.

Samarqand davlat chet tillar institutida birinchi bosqich talabalari uchun “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yarataylik!” shiori ostida “Mustaqillik darsi” tashkil etildi.

Mashg‘ulotni institut rektori Bahodir Xoliqov olib bordi. Dars jarayonida rektor mustaqillik shunchaki siyosiy tushuncha emas, balki har bir insonning o‘z hayoti va taqdiri haqida erkin qaror chiqarishi, bilim hamda mehnat orqali o‘z salohiyatini to‘la yuzaga chiqarishi uchun beqiyos imkon ekanini alohida ta’kidladi.

Xurshida ERNAZAROVA.

Yo‘llardagi NAZORAT TAROZILARI nima uchun kerak?



Bugun yurtimizda avtomobil yo‘llarining holatini yaxshilash, ulardan samarali va xavfsiz foydalanish, shuningdek, og‘ir yuk transport vositalarining harakatini tartibga solishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, magistral avtomobil yo‘llarida harakatlanuvchi yuk mashinalarining belgilangan vazn me’yorlariga rioya qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.



Viloyatimizdan kesib o‘tuvchi M-37 va M-39 magistral avtomobil yo‘llari bo‘yidagi deyarli barcha tumanlar hududida, jumladan, Ishtixon, Toyloq, Kattaqo‘rg‘on, Narpay va Paxtachida yuk transport vositalarini nazorat qilish maqsadida zamonaviy nazorat tarozilari o‘rnatilgan.

Ishtixon tumanidagi Safoxo‘ja qishlog‘idan o‘tgan M-37 avtoyo‘li yoqasida joylashgan «Suyunov Abdurauf servis» oilaviy korxonasiga qarashli 80 tonna yukni ko‘taradigan nazorat tarozisidan bir kunda o‘nlab yuk avtomobillari o‘tadi. Ushbu tarozi orqali transport vositalarining umumiy vazni hamda o‘qlarga tushayotgan yuklama belgilangan me’yorlar asosida nazorat qilinadi.

- Tarozi nafaqat transport vositalarining vaznini aniqlaydi, balki yo‘llarni asrashda ham muhim vosita hisoblanadi, - deydi oilaviy korxona rahbari A.Suyunov. - Ayni vaqtda kuniga 15-20 dan ziyod, mavsumiy ishlar boshlanganida esa 50-60 ta mashina, qariyb 400 tonnagacha yukni hisobga olamiz. Me’yordan ortiqcha yuk ortilgan transport vositasini boshqarishda muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Avtomobilning tormozlanish xususiyati o‘zgarib, boshqaruvi og‘irlashadi va burilishlarda barqarorligi pasayishi ehtimoli bor. Yana bir tomoni, har qanday avtomobil yo‘li muayyan me’yor va hisob-kitoblar asosida quriladi. Yo‘l qoplamasining mustahkamligi transport vositalarining belgilangan og‘irlikda harakatlanishiga bog‘liq.

Kattaqo‘rg‘on shahrida o‘rnatilgan zamonaviy nazorat tarozisi har tomonlama qulay va aniqlik bilan ishlaydi. Chunki o‘rnatilgan elektron tabloda mashinangizning vazni, davlat raqami, mashina markasi va boshqa zarur ma’lumotlar tarozidan o‘tib ketmasingizdan paydo bo‘ladi. Hatto piyodalarning ham vazni ko‘rsatiladi.

Ayrim hollarda yuk tashuvchi transport vositalariga me’yordan ortiq yuk ortib yuboriladi. Bu avtomobil yo‘llari qoplamasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Og‘ir yukli mashinalarning muntazam harakati natijasida asfalt qoplamada deformatsiya, yoriqlar va cho‘kish paydo bo‘lishi mumkin. M-37 va M-39 singari serqatnov magistral yo‘llarda harakatlanayotgan og‘ir yuk mashinalarining texnik holati va yuk me’yoriga rioya qilishi nafaqat haydovchining, balki boshqa barcha harakat ishtirokchilarining xavfsizligi uchun ham muhim.

- Nazorat tarozilarining asosiy maqsadi - transport vositalarining belgilangan vazn va o‘q yuklamasi me’yorlariga rioya etilishini ta’minlash, - deydi viloyat avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi bosh muhandisi Akbar Mirzayev. - Bu orqali avtomobil yo‘llarining holatini saqlash va harakat xavfsizligini ta’minlashga erishiladi. Albatta, yuk tashish bilan shug‘ullanuvchi haydovchilar va tadbirkorlarning belgilangan talablarga amal qilishi muhim. Yukni transport vositasi imkoniyati va belgilangan me’yorlar doirasida ortish nafaqat qonun talabi, balki yo‘llarni asrash va harakat xavfsizligini ta’minlashga qo‘shilgan hissa hamdir.

Amaldagi tartibga ko‘ra, transport vositasining har bir o‘qiga tushadigan og‘irlik 10 tonnadan oshmasligi kerak. Avtomobilning umumiy og‘irligi belgilangan me’yordan oshmagan bo‘lsa ham, agar biror o‘qqa tushadigan yuklama 10 tonnadan oshib ketsa, bu qoidabuzarlik hisoblanadi va ma’muriy jarima qo‘llanilishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, ortiqcha yuk bilan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarida harakatlanish yo‘llarga va yo‘l infratuzilmasiga zarar yetkazish deb baholanishi mumkin.

Bunday holatda faqat jarima bilan cheklanib qolinmasdan, yo‘lga yetkazilgan zarar ham hisoblab chiqiladi va transport vositasi egasidan belgilangan tartibda undiriladi. Shu sababli haydovchilarimiz yuk mashinasining faqat umumiy og‘irligiga emas, balki har bir o‘qqa tushayotgan yuklamaga ham e’tibor berishlari zarur.

Dilmurod TO‘XTAYEV,
“Zarafshon” muxbiri.



"Salomatlik ekspressi": aholiga bepul oftalmologik yordam ko‘rsatilmoqda



Samarqand elektr tarmoqlariga xususiy operator kelishi nimani o‘zgartiradi?

Deputat minbari

Xavfsiz bozordan raqamli iqtisodiyotgacha

Zamonaviy dunyoda davlat oldidagi vazifalar o‘zgarmoqda. Ilgari iqtisodiyotni tartibga solish, xavfsizlikni ta’minlash yoki fuqarolar huquqini himoya qilish asosan an’anaviy mexanizmlar orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, bugun raqamli texnologiyalar, elektron savdo, transchegaraviy xizmatlar va axborot makoni yangi huquqiy yondashuvlarni talab qilmoqda.



Oliy Majlis Senatining 18-yalpi majlisida muhokama qilingan bir qator qonunlar ana shu o‘zgarishlarning huquqiy ifodasi bo‘ldi. Ularda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdan tortib, mahsulotlar xavfsizligi, bozor nazorati, reklamada moliyaviy mas’uliyatni kuchaytirish va ekstremizmga qarshi kurashishgacha bo‘lgan masalalar qamrab olindi. Bu qonunlarning har biri alohida sohani tartibga soladi. Biroq ularning umumiy mazmuni zamonaviy jamiyatda xavfsizlik, erkinlik va taraqqiyot o‘rtasida to‘g‘ri muvozanatni ta’minlashdir.

Bugun iqtisodiy o‘sishni raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Shu nuqtai nazardan “Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun alohida ahamiyatga ega. Zero, ushbu qonun bilan IT-park hududida ingliz huquqi tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi “Enterprise Uzbekistan” raqamli texnologiyalar xalqaro markazining huquqiy poydevori yaratilmoqda.

Biroq raqamli iqtisodiyot qanchalik tez rivojlanmasin, inson hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan mahsulotlar bozorga kirib kelaversa, iqtisodiy o‘sishning o‘zi yetarli bo‘lmaydi. Shu jihatdan, “Mahsulotlarning umumiy xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonun muhim ahamiyat kasb etadi. Globallashuv, elektron tijorat va transchegaraviy savdoning kengayishi iste’molchi oldidagi tanlovni ko‘paytirdi. Ammo tanlov ko‘paygani sayin xavfsizlikka bo‘lgan talab ham ortadi.

Yangi qonunga ko‘ra, bozorga chiqariladigan mahsulotlar xavfsiz bo‘lishi shart. Ishlab chiqaruvchilar, import qiluvchilar va iqtisodiy operatorlar mahsulot xavfsizligi uchun bevosita mas’ul bo‘ladi.

Bu yondashuvning ahamiyati katta. Davlat har bir mahsulotni bozorga chiqishidan oldin to‘liq tekshirib turishi amalda ham, iqtisodiy jihatdan ham samarali emas. Shu sababli mahsulot xavfsizligi uchun birinchi navbatda uni ishlab chiqargan yoki bozorga olib kirgan subyekt mas’ul bo‘lishi kerak.

Shu bilan birga, bozor nazoratining xavflarga asoslangan yangi mexanizmi joriy etilmoqda. Nazorat xaridlari, laboratoriya sinovlari, xavfli mahsulotlarni muomaladan chiqarish va chaqirib olish, iste’molchilarni tezkor xabardor qilish kabi mexanizmlar bozorda xavfli mahsulotlarning tarqalishini cheklashga xizmat qiladi.

“Bozor nazorati to‘g‘risida”gi Qonun esa mazkur jarayonlarning institutsional asosini mustahkamlaydi. Eng muhimi, nazorat faqat davlat organlarining vakolati sifatida emas, aniq huquq va majburiyatlarga ega tizim sifatida shakllantirilmoqda.

Tadbirkorlarning ham huquqlari kafolatlanishi bejiz emas. Ular nazorat tadbirlarida ishtirok etish, materiallar bilan tanishish, audio va videoyozuvlarni amalga oshirish, davlat organlari qarorlari ustidan shikoyat qilish huquqiga ega bo‘ladi.

Bu - zamonaviy nazoratning muhim belgisi. Xavfsizlikni ta’minlash bahonasida tadbirkorning qonuniy manfaatlarini cheklash mumkin emas. Davlat nazorati ochiq, asoslangan va mutanosib bo‘lishi kerak.

Shu bilan birga, aholiga moliyaviy xizmatlar haqida axborot berish masalasi ham dolzarb. “Reklama to‘g‘risida”gi Qonunga kiritilayotgan o‘zgartishlar kredit mahsulotlari reklamasida iste’molchiga o‘z to‘lov qobiliyatini to‘g‘ri baholay olmaslik va qarz majburiyatlarini bajarmaslik moliyaviy xatarlarga olib kelishi mumkinligi haqida ogohlantirishni nazarda tutmoqda.

Bu norma birinchi qarashda reklamaga oid oddiy talabdek ko‘rinishi mumkin. Aslida esa u moliyaviy madaniyatni oshirishga qaratilgan. Kredit - bu bepul mablag‘ emas, balki ma’lum muddatdan keyin qaytarilishi lozim bo‘lgan majburiyat. Iste’molchi buni aniq anglashi kerak.

Umuman olganda, Senatning 18-yalpi majlisida ko‘rib chiqilgan qonunlar mamlakatimizda davlat boshqaruvi va iqtisodiyotning yangi voqelikka moslashib borayotganini ko‘rsatadi. Bir tomonda - raqamli texnologiyalar, xorijiy investitsiyalar, global IT kompaniyalari va eksport. Ikkinchi tomonda - xavfsiz mahsulot, himoyalangan iste’molchi, mas’uliyatli tadbirkor va xavfsiz axborot muhiti.

Shu ma’noda yangi qonunlar faqat bugungi muammolarga javob emas. Ular O‘zbekistonning ertangi iqtisodiy va ijtimoiy muhiti uchun huquqiy poydevor yaratadi.

O‘ktam SAIDMURODOV,
xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati.

Tanish-bilishchilik va hisobotlarni bo‘yab ko‘rsatishga chek qo‘yilmoqda

Zarafshon

Islohot

XALQ QABULXONALARI
NEGA VA QANDAY ISLOH QILINDI?

Bundan bir necha yil avval mamlakat hayotida butunlay yangi sahifa bo‘lgan, davlat idoralari eshigini oddiy xalq uchun lang ochib bergan bir tizim yaratilgan edi. Bu - Xalq qabulxonalari. Uning tashkil etilishi jamiyatda ulkan umid va ishonch to‘lqinini uyg‘otdi. Odamlar yillar davomida to‘planib qolgan, tizimli to‘siqlar tufayli yechilmay kelgan muammolariga mana shu maskanda najot topdi. Deyarli har bir fuqaroda muammoli vaziyatda «Xalq qabulxonasiga chiqaman», degan qat’iyat paydo bo‘ldi.



Biroq vaqt o‘tishi bilan davlat organlari va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarda siyqasi chiqqan, ammo chuqur ildiz otgan eski kasallik yana bo‘y ko‘rsata boshladi: fuqaro dardini aytadi, murojaat qiladi. Davlat idorasidan rasmiy, chiroyli va qolipga solingan javob xati oladi. Ammo muammo qolaveradi. Javobdan qoniqmagan fuqaro yana murojaat yo‘llaydi. Bu «aylanma harakat» oylab, yillab davom etaveradi.

Tahlillarga ko‘ra, Xalq qabulxonalari yangi ochilgan dastlabki kezlarda murojaatlarning 90-95 foizi aynan tizimdagi nuqsonlardan norozilik - shikoyat shaklida bo‘lgan. Keyinchalik, ma’lum bir islohotlar samarasi o‘laroq, bu ko‘rsatkich 60-65 foizga tushdi. Ammo bu xotirjamlikka asos bo‘la olmasdi. Muammoning asl ildizi – ijro apparatlarining mas’uliyatsizligi va tizimning ichidan zanglayotgani edi.

«DISPETCHER»LIK MAQOMI VA ISHONCH INQIROZI

2025-yil 16-iyun kuni davlat rahbari raisligida o‘tgan yig‘ilishda Xalq qabulxonalari faoliyati jiddiy va keskin tanqid ostiga olindi. Unda haqiqat ochiq aytildi: tizim ko‘p hollarda aholi muammolarini real hal qiladigan kuch bo‘lish o‘rniga, kelgan xatlarni davlat organlariga shunchaki taqsimlab beruvchi, avtomatik «dispetcher»ga aylanib qolgan.

Odamlar umidsizlikka tusha boshlagach, o‘z muammolarini an’anaviy davlat idoralari orqali emas, balki ijrochilarni tezroq qimirlashga majbur qiluvchi ijro maydoni - ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Telegram, Instagram) orqali olib chiqishga o‘tdilar. Bu jarayon shu qadar kuchaydiki, jamoatchilik o‘rtasida: «Agar hamma muammo baribir ijtimoiy tarmoqlarda shov-shuv bo‘lgandan keyin hal etilsa, unda Xalq qabulxonalari kimga va nima uchun kerak?» degan juda haqli, og‘riqli savollar ko‘ndalang bo‘la boshladi. Tizim o‘z qiyofasini, eng yomoni, xalqning ishonchini yo‘qota boshlagan edi.

«KO‘RIB CHIQING» EMAS, «BAJARING!»

Xalq qabulxonalari shunchaki arizalarni yig‘ib oluvchi «pochta qutisi» bo‘lmasligi kerak. Uning asl missiyasi - hududlardagi tizimli muammolarni chuqur tahlil qiladigan, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlaydigan va kasallikni alomatiga qarab emas, ildizi bilan davolaydigan markaz bo‘lishdir.

Mana shu hayotiy zarurat tufayli joriy yil 1-aprel kuni davlat rahbari tomonidan muhim tarixiy hujjat — «Aholi bilan muloqot tizimini samarali tashkil qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmon qabul qilindi. Bu farmon tizimni mutlaqo yangidan formatlash, unga haqiqiy «tish va tirnoq» berish uchun tashlangan qat’iy qadam bo‘ldi.

Farmon bilan kiritilgan eng katta o‘zgarish — Prezident Xalq qabulxonasining yuridik shaxs sifatida, mustaqil maqomda qayta tashkil etilishidir. Bu shunchaki nomlanish yoki rasmiyatchilik emas. Ilgari qabulxonalar ijro nazorati bo‘yicha zaif vakolatga ega bo‘lib, murojaatlarni tegishli idoralarga jo‘natish bilan cheklangan bo‘lsa, endilikda vaziyat tubdan o‘zgardi.

Yangi tuzilma davlat organlariga majburiy ijro etilishi shart bo‘lgan taqdimnoma, ko‘rsatma va talabnomalar yuborish bo‘yicha mutlaq vakolatga ega bo‘ldi. Bu degani, endi davlat idorasiga yo‘llanadigan xatlarda ilgarigidek «Ko‘rib chiqishingizni so‘raymiz» degan zaif iltimos emas, balki «Falon muddatda bajaring va natijasini ko‘rsating!» degan qat’iy talab qo‘yiladi.

Bu talab bajarilmasa-chi? Unda tizimning jazolash va huquqiy ta’sir mexanizmlari ishga tushadi: vazifani paysalga solgan, ijro qilmagan idoralar ustidan to‘plangan materiallar to‘g‘ridan-to‘g‘ri prokuratura organlariga yuboriladi.

Qonunbuzilish holatlari aniqlanganda, Xalq qabulxonasining o‘zi mansabdor shaxslarga nisbatan ma’muriy bayonnoma rasmiylashtirish va ishni ko‘rib chiqish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri sudga kiritish huquqiga ega.

Bu oddiygina ma’muriy reforma yoki navbatdagi o‘zgarish emas. Bu - mansabdor shaxslarning fuqaro oldidagi javobgarlik tizimini kuch ishlatish, huquqiy majburlash orqali qayta shakllantirish demakdir.

OCHIQ REYTING VA RAQAMLI NAZORAT

Yangi tizimning eng katta yutuqlaridan biri - unda inson omili, tanish-bilishchilik va hisobotlarni bo‘yab ko‘rsatishga chek qo‘yilayotganida. Buning uchun farmonda bir qator inqilobiy mexanizmlar ko‘zda tutilgan.

Endi hech bir vazirlik yoki hokimlik o‘z binosining orqasiga yashirinib, «bizda hammasi yaxshi», deb hisobot bera olmaydi. Har olti oyda davlat organlari va mahalliy hokimliklarning murojaatlar bilan ishlash samaradorligi bo‘yicha ochiq reytingi e’lon qilinadi. Bunda baholash quruq raqamlarga emas, balki kelib tushgan murojaatlarning umumiy soni va ularning o‘sish/kamayish dinamikasi, muammolarning real, ijobiy hal etilish darajasi, qonunda belgilangan muddatlarga rioya qilinishi kabi aniq mezonlarga asoslanadi.

Agar bir fuqaro bitta masala bo‘yicha ikkinchi marta xat yozishga majbur bo‘lgan bo‘lsa, bu o‘sha hudud yoki idora reytingini tushiradigan jiddiy signal hisoblanadi.

Murojaatlar bilan ishlash tizimiga to‘liq raqamlashtirilgan avtomatik nazorat mexanizmi joriy etilishi sababli fuqaroning murojaati qonunda belgilangan muddatda quyi bo‘g‘inda ko‘rib chiqilmasa yoki muddati o‘tib ketsa, tizim hech kimdan so‘rab o‘tirmasdan, avtomatik ravishda ushbu murojaatni yuqori turuvchi organga va nazorat blokiga o‘tkazadi. Bu yerda «unutib qoldiribmiz», «kompyuter ishlamay qoldi» yoki «ulgurolmadik» degan bahonalar o‘tmaydi. Tizimning o‘zi qat’iy algoritm asosida ishlaydi.

Shu bilan birga, Xalq qabulxonalari nafaqat o‘zlariga kelgan xatlarni, balki barcha davlat organlari rahbarlarining shaxsiy qabullari qanday o‘tayotgani va tashkilotlarning «ishonch telefonlari» haqiqatda ishlayaptimi yoki shunchaki namuna uchun qo‘yilganmi - barchasini doimiy monitoring qilib boradi. Bu rahbarlarning ish xonasidan chiqib, xalq ichiga kirishini ta’minlovchi kuchli nazorat dastagidir.

Darvoqe, davlat organlari rahbarlari, vazirlar va hokimlarning hisobotlari har chorakda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatida, joylarda esa xalq deputatlari Kengashlarida eshitiladi. Endi ular deputatlar oldiga chiqib, umumiy gaplar bilan vaqtdan yuta olmaydi. Shaxsan vazir yoki hokim o‘z taqdimotida hududdagi tizimli muammo nimada ekanini va uni hal qilish bo‘yicha qanday aniq reja, moliyaviy manbaga ega ekanini isbotlab berishi shart.

Sodiqjon TOSHNAZAROV,
Samarqand shahar Xalq qabulxonasi mudiri o‘rinbosari.

Mazkur maqolaning to‘liq matnini ushbu QR-kod orqali o‘qishingiz mumkin.

Inson – jamiyat – davlat

Davlatning qudrati va jamiyatning yuksalishi, avvalo, unda inson hayoti, huquq va erkinliklari, orzu-intilishlari hamda munosib turmushi qay darajada qadrlanishi bilan belgilanadi. Bugun Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida aynan inson qadri ustuvor maqsad sifatida namoyon bo‘lmoqda. «Ijtimoiy davlat» tamoyilining Konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi esa bu g‘oyani yangi mazmun va mas’uliyat bilan boyitdi. Endi davlatning vazifasi nafaqat iqtisodiy o‘sishga erishish, balki har bir fuqaroning munosib hayot kechirishi, sifatli ta’lim va tibbiy xizmatdan foydalanishi, ijtimoiy himoyaga ega bo‘lishi va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoit yaratish bilan ham chambarchas bog‘liq. Shu ma’noda, inson qadrini yuksaltirish — muayyan bir islohot yoki davrga xos vazifa emas, balki Yangi O‘zbekistonning uzoq muddatli taraqqiyot mo‘ljalidir. Bu falsafa davlat va jamiyat munosabatlarini yangicha mezonlar asosida qurish, «inson — jamiyat — davlat» tamoyilini hayotga chuqur singdirish va milliy yuksalishning mustahkam poydevorini yaratishni nazarda tutadi.

INSON QADRI
ulug‘langan jamiyatda taraqqiyot bo‘ladi



Ijtimoiy davlatning eng oliy maqsadi - insonni asrash, uning qadrini ulug‘lash va kelajakka ishonch bilan qadam qo‘yishi uchun zarur imkoniyatlarni yaratish. Bu maqsad Vatanimiz mustaqilligining o‘ttiz besh yilligi tantanalarida davlatimiz rahbari tabrigida o‘zaro bog‘liq yetti muhim yo‘nalishda ham namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, bilim va malaka kelgusi taraqqiyotimizning asosiy kapitaliga aylanishi zarur. Tabiiy resurslar cheklangan bo‘lishi mumkin, ammo insonning bilimi, qobiliyati va ijodiy salohiyati taraqqiyotning asosiy manbai. Shuning uchun, zamonaviy ta’lim, kasbiy ko‘nikmalar va ilmiy tafakkurga investitsiya kiritish mamlakatning eng muhim strategik sarmoyasiga aylanadi.

Ikkinchidan, sog‘lom inson - barqaror jamiyatning asosiy tayanchi. Aholining salomatligi va uzoq umr ko‘rishi nafaqat tibbiyot tizimining, balki butun davlat taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichidir. Asosiysi, sifatli tibbiy xizmat, sog‘lom turmush tarzi va inson umri sifatini oshirishga qaratilgan yondashuvlar jamiyatning ijtimoiy salohiyatini mustahkamlaydi.

Uchinchidan, mamlakat iqtisodiyotini yuqori texnologiyalar va mehnat unumdorligi modeliga o‘tkazish raqobatbardosh kelajakning muhim sharti. Bunda raqamlashtirish, raqamli innovatsiya, avtomatlashtirish va zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari inson mehnatining samaradorligi va imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilishi lozim.

To‘rtinchidan, suv va tabiatga munosabatni tubdan o‘zgartirish lozim bo‘ladi. Iqtisodiy o‘sish tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan uyg‘unlashmasa, bugungi yutuqlar ertangi avlodlar uchun muammoga aylanishi mumkin. Shu bois ekologik mas’uliyat va suv resurslarini asrash madaniyati milliy taraqqiyotning ajralmas qismiga aylanishi kerak.

Beshinchidan, sud mustaqilligini kuchaytirish va qonun ustuvorligini umumiy qadriyatga aylantirishni nazarda tutadi. Chunki inson huquqi himoyalanganiga ishonch hosil qilgandagina uning davlat va jamiyatga bo‘lgan ishonchi mustahkamlanadi. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi esa nafaqat davlat organlarining, balki butun jamiyatning umumiy huquqiy madaniyatiga aylanishi zarur.

Oltinchi yo‘nalish mahallani jamiyat taraqqiyotining asosiy ijtimoiy buyurtmachisiga aylantirish g‘oyasi bilan bog‘liq. Chunki insonning real ehtiyojlari, avvalo, u yashaydigan hududda namoyon bo‘ladi. Mahalla fuqaroning muammosini eshitadigan, tashabbusini qo‘llab-quvvatlaydigan va hudud rivojining ustuvor vazifalarini belgilaydigan samarali ijtimoiy maskanga aylanishi muhim ahamiyatga ega.

Yettinchidan O‘zbekistonning tinchlik va do‘stlik diyori, bag‘rikeng o‘lka sifatidagi nufuzini yanada yuksaltirish shart. Chunki zamonaviy dunyoda mamlakatning qudrati nafaqat iqtisodiy va texnologik imkoniyatlari, balki uning tinchliksevarligi, ochiqligi, madaniy muloqotga tayyorligi va xalqlar o‘rtasida ishonch ko‘prigini barpo eta olishi bilan belgilanadi.

Yetti milliy dasturning umumiy maqsadi bitta - raqamli transformatsiyalashuv sharoitida inson imkoniyatlarini kengaytirish va uning munosib hayoti uchun barqaror yuksalish muhitini yaratish. Aynan shu nuqtai nazardan ularni mamlakatimizning kelgusi milliy yuksalish davrini belgilaydigan o‘zaro uyg‘un inson manfaatlari uchun xizmat qiladigan strategik yo‘nalishlar sifatida baholash mumkin.

Shuhrat RO‘ZINAZAROV,
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bo‘lim boshlig‘i, yuridik fanlari doktori, professor.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash nimalarga bog‘liq?

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini istiqbolda barqaror rivojlantirish sohada davlat siyosatini yangicha yondashuvlar asosida yuritish vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Chunki oziq-ovqat xavfsizligi keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ekologik omillarga bog‘liq bo‘lib, mamlakat rivojlanishining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.



Keyingi yillarda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha bir qator choralar amalga oshirilishi natijasida O‘zbekiston dunyoda egallagan o‘rnini mustahkamlashga erishdi va bosqichma-bosqich global reytinglarda o‘z mavqeini yaxshilab oldi.

Biroq aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami uchun oziq-ovqat mahsulotlari ta’minoti barqarorligiga erishish, kam daromadli oilalarning xarid qobiliyatini oshirish, mahsulotlar narxi va miqdori keskin o‘zgarishining oldini olish hal etilishi zarur bo‘lgan muammolardan hisoblanadi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish va yuqori hosil olish uchun ekinlarni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilish zarur. Kerakli himoya choralari ko‘rilmaganda hosilning 50-60 foizi nobud bo‘ladi.

Qishloq xo‘jalik ekinlaridan ekologik toza mahsulot yetishtirish uchun ekinlarni zararkunanda va kasalliklardan biologik usulda himoya qilish, zaharli kimyoviy preparatlarni kamroq va rejali ishlatish zarurligi bugungi kunda hammaga ayon. Bu borada viloyatimiz xo‘jaliklarida hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan biolaboratoriyalarning yaxshi ishlashi hamda soha mutaxassislarining bilimi va o‘z vazifasiga vijdonan yondashishi muhim. Hozir viloyat tumanlarida jami 32 ta shunday biolaboratoriyalar faoliyat yuritmoqda. Ularda qishloq xo‘jalik ekinlari zararkunandalariga qarshi qo‘llaniladigan trixogramma, brakon va oltinko‘z kabi biologik mahsulotlar yetishtiriladi. Jumladan, 2026-yilda g‘o‘za maydonlarida shira-tripsga va o‘rgimchakkanaga qarshi 168,1 ming gektar maydonda oltinko‘z, ko‘sak qurtiga qarshi profilaktika maqsadida 128,4 ming gektar maydonda trixogramma, 47,3 ming gektar maydonda brakon biomahsulotlari bilan biologik ishlov o‘tkazildi.

G‘o‘za maydonlarida ko‘sak qurti kapalagi tarqalishi va rivojlanishini nazorat qilish uchun har gektariga bir donadan feromon tutqichlar o‘rnatildi.

Bundan tashqari, g‘alla yetishtiriladigan maydonlarda va dala chetlarida begona o‘tlarni va ulardan boshlab tarqalishi mumkin bo‘lgan zararkunanda organizmlar o‘choqlarini yo‘qotish maqsadida kam zaharli bo‘lgan kimyoviy vositalar bilan ishlov berildi. Shuningdek, viloyatimizda biolaboratoriyalar ishini yanada yaxshilash, ular ish unumi va sharoitlarini yuqori darajaga ko‘tarish, biologik mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish zarur.

Viloyatda biolaboratoriyalar ishini yaxshilash hamda o‘simliklarni zararkunanda va kasalliklardan samarali himoya qilish uchun birinchi navbatda yuqori malakali va bilimli kadrlarga ehtiyoj seziladi. Hozir viloyatimizda 2 ta oliy ta’lim muassasasida, ya’ni Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti hamda Samarqand davlat universiteti qoshidagi agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi institutida o‘simliklar karantini va himoyasi yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun soha ilmini yuqori darajaga ko‘tarish va malakali mutaxassislar tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Ya’ni, ilmiy-tadqiqot, ta’lim va axborot-maslahat xizmatlarini ko‘rsatishni o‘zaro bog‘laydigan qishloq xo‘jaligiga oid bilim va axborotlarni tarqatish bo‘yicha samarali tizimning yo‘qligi sohani ilmiy asosda rivojlantirishdagi eng jiddiy to‘siqlardan biri bo‘lib qolmoqda. Hozirda ilmiy-tadqiqotlar uchun davlat investitsiyalari darajasi qishloq xo‘jaligi umumiy budjetining 0,2 foizini tashkil etadi. Ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqalarning samarali mexanizmlari mavjud emasligi davlat tomonidan moliyalashtirilgan ilmiy-tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy qilishni sezilarli darajada cheklamoqda.

Hozirda viloyatimizda “O‘simliklar klinikalari” tashkil qilingan. Ular dehqon va fermer xo‘jaliklarining ekin maydonlaridagi va hatto shaxsiy tomorqa xo‘jaliklaridagi ekinlarning zararkunanda va kasalliklari to‘g‘risida aniq ma’lumotlar, ularni bartaraf qilish yuzasidan maslahatlar berib bormoqda. Bu kabi “klinikalar” xizmatlarini ko‘paytirish va ularni malakali mutaxassislar bilan ta’minlash qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, istiqbolda xavfsiz oziq-ovqat tarmog‘ini yaratish va kengaytirishga xizmat qiladi.

A.ISMOILOV,
o‘simliklar karantini va himoyasi viloyat boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari.
B.FAYZULLAYEV,
o‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Samarqand mintaqaviy filiali katta ilmiy xodimi.

Azamat Akbarov:

“O‘rganganingizni Vatanga qaytaring!”



Insoniyat qaysi asrda bo‘lmasin, Uyg‘onish, ya’ni Renessans asri doim olimlar va ularning faoliyati bilan bog‘liq bo‘ldi. Bugun mamlakatimizda yangi Renessans davri boshlanishi haqida fikrlar bildirilar ekan, buning uchun avvalo, ta’limga e’tibor qaratildi. Tizimning eng quyi bosqichidan oliy ta’lim muassasalarigacha barchasida islohotlar boshlandi, bu o‘zgarishlardan ruhlangan, xorijda faoliyat yuritayotgan ko‘plab olimlarimiz o‘z vataniga qaytib faoliyatini davom ettirdi. Ular orasida ta’lim haqidagi dolzarb chiqishlari bilan ko‘pchilikning e’tiboriga tushgan olim, professor Azamat Akbarov ham bor.

REGISTONDAN BOSHLANGAN YO‘L

Akbarov Azamat Anvarovich 1995-yilda Samarqand davlat chet tillar institutini ingliz filologiyasi bo‘yicha imtiyozli diplom bilan tugatgach, shu institutda magistratura yo‘nalishida tahsil oldi. 1999-yildan esa shu yerda o‘qituvchilik - karerasining ilk qadamlari Registondan bir necha chaqirim narida qo‘yilgan. 2001-2004-yillar oralig‘ida SamDChTIda dekan o‘rinbosari va kafedra mudiri lavozimlarida ishladi.

Keyingi yo‘l dunyoga olib chiqdi. Shvetsiyaning Dalarna universitetida xalqaro munosabatlar bo‘yicha magistratura, Janubiy Koreyada amaliy tilshunoslik bo‘yicha PhD. Bosniya va Gersegovina poytaxti Sarayevo shahridagi xalqaro universitetda kafedra mudiri, dekan va prorektor bo‘lib, Olmaota shahridagi al-Forobiy nomidagi Qozog‘iston milliy universitetida professor va Sulayman Demirel nomidagi universitetda pedagogika fakulteti dekani, Janubiy Koreyaning Pusan xorijiy tillar universitetida Markaziy Osiyo tadqiqotlari markazida professor lavozimida ishladi.

Qizig‘i shundaki, u qayerga borsa, o‘zi bilan Samarqandni olib borgan. Janubiy Koreyada nashr etilgan birinchi «O‘zbek tili» darsligi uning qalamiga mansub. Bosniya va Gersegovina hamda Qozog‘iston amaliy tilshunoslik uyushmalariga asos soldi.

O‘TTIZ YIL — RAQAMLAR TILIDA

Professorning ilmiy safari raqamlarda ham salmoqli: taqrizlanadigan jurnallar va to‘plamlarda 193 ta ilmiy nashr, 41 ta kitob va tahrir qilingan to‘plam, 60 mamlakatda 190 ta konferensiya ma’ruzasi, 32 ta plenar va asosiy ma’ruza, 22 ta tadqiqot loyihasi va granti. U o‘zbek, ingliz, rus va turk tillarida erkin so‘zlashadi, ozarbayjon, fors, qozoq va bosnia tillarini yaxshi biladi.

- Men eng ko‘p faxrlanadigan raqamlar — ularning ortidagi insonlar, - deydi bu haqda Azamat Akbarov. - 13 doktorantimdan 6 nafari Bosniya va Gersegovinadan, 7 nafari turkiyalik. 43 magistrantimdan 18 nafari Bosniya va Gersegovinadan, 24 nafari Turkiyadan va 1 nafari Qozog‘istondan. Ularning yetuk olim va hamkasbga aylanishini kuzatish bu ishning eng quvonchli tomoni bo‘ldi.

DUNYONI O‘ZBEKISTONGA OLIB KELISH

2011-yilda u Xorijiy tillarni o‘qitish va amaliy tilshunoslik bo‘yicha xalqaro konferensiyaga (FLTAL) asos soldi. Dastlabki sakkiz konferensiya xorijda o‘tkazildi, 2019-yildan esa anjuman O‘zbekistonga ko‘chirildi. Toshkentdagi birinchi FLTAL 30 mamlakatdan 500 ga yaqin ishtirokchini to‘pladi. 2020-yilda o‘ninchi FLTAL Samarqanddagi «Ipak yo‘li» turizm xalqaro universitetida o‘tdi. 2026-yil aprelida Jizzax davlat pedagogika universitetida o‘tkazilgan 16-FLTALga 24 mamlakatdan 200 ga yaqin olim keldi. Plenar ma’ruzachilar orasida Oksford, Yel, Stenford, Oklend, Kembrij, Garvard, MIT, London Universitet kolleji, Pensilvaniya, Michigan va Florida shtat universitetlari professorlari bor edi.

2022-yilda u oliy ta’limga bag‘ishlangan «Tayanch nuqtasi» podkastini boshladi. Unda mamlakatimizdagi yigirmadan ortiq davlat va xususiy universitet rektorlari, Fransiyaning O‘zbekistondagi elchisi va Britaniya Kengashi rahbari ochiq suhbat qurib kelmoqda.

TASHABBUSKOR

2019-yilda Samarqandga qaytgach, «Ipak yo‘li» turizm xalqaro universitetida xalqarolashuv va strategik rivojlanish bo‘yicha birinchi prorektor lavozimida ishladi. Ayni shu yilda u O‘zbekiston davlat universitetlarida birinchilardan bo‘lib besh kunlik o‘quv haftasi, 50 daqiqalik darslar, edvayzerlik, elektiv fanlar, dual ta’lim va talabalar parlamentini joriy etdi.

Bugun A.Akbarov Samarqanddagi Silk Road Global Institute bosh ijrochi direktori va bir qator universitetlar rektorlarining internatsionalizatsiya bo‘yicha maslahatchisidir. O‘tgan yili u Urganch, Jizzax, Buxoro, Samarqand va Toshkentdagi oliy o‘quv yurtlarida talabalar va o‘qituvchilar uchun ma’ruzalar o‘qidi, haftalik onlayn seminarlar olib bordi, akkreditatsiya, Scopus maqolalari va xalqaro reytinglar bo‘yicha yuzlab bepul maslahat berdi. Bularning barchasi ko‘ngilli asosda, biror haq yoki grantsiz amalga oshirildi.

IKKI DAVLAT E’TIROFI

2025-yil 25-dekabrda Oliy Majlis Senatining fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi raisi professorga «Tashakkurnoma» topshirdi. Bundan avval u Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining Faxriy yorlig‘i va «Oliy ta’lim a’lochisi» ko‘krak nishoni (2025) bilan taqdirlangan edi. 2017-yilda esa Qozog‘iston Ta’lim va fan vazirligi o‘z Faxriy yorlig‘ini topshirgan. 2026-yil iyunida Ozarbayjon davlat pedagogika universiteti ham uni Faxriy diplom bilan taqdirladi.

ILM — JAMOAVIY MEHNAT

Mirzo Ulug‘bekning Buxorodagi madrasasi peshtoqiga «Ilm olishga intilish har bir muslim va muslimaning burchidir» degan so‘zlar bitilgan. Samarqand u tufayli o‘z davrida dunyo ilm-fanining markaziga aylandi.

- Men Seulda ham, Tokioda ham, Nyu-Yorkda ham, Sarayevoda ham, Olmaotada ham o‘zimni Samarqandning elchisi deb bildim, - deydi olim. - Dunyoning qayerida bo‘lsam ham, Registon gumbazlari ortimda turardi. Bugun esa eng katta orzuim - dunyo olimlarining O‘zbekistonga Ulug‘bek davridagidek intilishi. Biz bunga qodirmiz, chunki bu zaminga ilm hech qachon begona bo‘lmagan. Ilm-fan — jamoaviy mehnat. Bu yo‘lda hamroh bo‘lgan har bir talaba, hammuallif va hamkasbimdan minnatdorman. Yoshlarimizga aytmoqchimanki: dunyoga chiqing, o‘rganing, lekin o‘rganganingizni Vatanga qaytaring. Ulug‘bek avlodlari uchun bundan yuksak sharaf yo‘q.

Rasadxona tepaligidan qaraganda Samarqand bugun ham o‘sha Samarqand: dunyo bu shaharga keladi, bu shahar dunyoga chiqadi. Farqi shundaki, bugun Oksford va Seuldan kelayotgan olimlarni Registon yonida bir necha tillarni bilib, bugun jahon ayvonida o‘z salohiyatini namoyon etayotgan samarqandlik olimlar kutib oladi.

Gulruh MO‘MINOVA.

Bugun dunyoda surunkali nafas yo‘llari, yurak - qon tomir, oshqozon ichak, qandli diabet va saraton kabi yuqumsiz kasalliklar sog‘liq uchun katta muammo bo‘lib qolmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, yuqumsiz kasalliklar 2024-yilda dunyo bo‘yicha kamida 43 million odamning o‘limga sabab bo‘lgan. Ularning muhim xavf omillari orasida noto‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollikning yetishmasligi, tamaki va spirtli ichimliklarni iste’mol qilish omillari yotadi.

Salomatlikni asrash shifokor xonasidan emas

kundalik hayotimizdan boshlanadi

Inson o‘zini yaxshi his qilishi - uning organizmida hech qanday muammo yo‘q degani emas. Ayrim kasalliklar uzoq vaqt davomida sezilarli alomatsiz kechishi mumkin. Shuning uchun profilaktik ko‘riklarning ahamiyati juda katta. Qon bosimini nazorat qilish, shifokor tavsiyasiga ko‘ra zarur tahlillarni topshirish, tana vazniga e’tibor berish va mavjud xavf omillarini baholash orqali ayrim muammolarni erta aniqlash mumkin.

Erta aniqlangan kasallikni davolash samaradorligi yuqori bo‘ladi. JSST ham yuqumsiz kasalliklarni aniqlash, skrining va o‘z vaqtida davolashni muhim yo‘nalish sifatida ko‘rsatadi.

BIR PIYOLA CHOY, BIR DONA NON VA KUN BO‘YI O‘TIRISH...

Kundalik hayotimizdagi oddiy odatlar ham sog‘lig‘imizga ta’sir qiladi.

Ertalab nonushta, ish yoki o‘qish, kun davomida ko‘p vaqtni o‘tirib o‘tkazish, kechqurun esa to‘yimli ovqat bilan kunni yakunlash ko‘pchilik uchun odatiy hol. Muammo shundaki, bu odatlar yillar davomida takrorlanganda organizmga ta’siri sezila boshlaydi.

Sog‘lom ovqatlanish deganda barcha sevimli taomlardan voz kechish tushunilmaydi. Muhimi, muvozanat va me’yor. Ratsionda turli sabzavot va mevalar, don mahsulotlari hamda sifatli oqsil manbalari bo‘lishi, ortiqcha tuz, shakar va nosog‘lom yog‘larni cheklash tavsiya etiladi.

Demak, sog‘lom ovqatlanish qimmat mahsulotlardan boshlanmaydi. U avvalo, ongli tanlovdan boshlanadi.

Texnologiya hayotimizni yengillashtirdi, ammo harakatimizni kamaytirdi. Avtomobil, lift, masofadan ishlash, telefon va kompyuter qarshisida uzoq vaqt o‘tirish kundalik harakatimizni qisqartirib yuborishi mumkin. Vaholanki, jismoniy faollik yurak-qon tomir kasalliklari, qandli diabet va ayrim saraton turlari xavfini kamaytirishga yordam beradi. U ruhiy holat va hayot sifatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

MO‘JIZAVIY DAVOLARDAN EHTIYOT BO‘LING

Bugun biror kasallik haqida ma’lumot topish uchun telefonni ochishning o‘zi kifoya. Ammo axborotning ko‘pligi har doim ham uning ishonchliligini anglatmaydi. Yani, bu mahsulot barcha kasallikni davolaydi, dorisiz qon bosimini bir kunda tushiradi, shifokorga borish shart emas, degan gaplarga ishonmaslik kerak.

Har bir bemorning yoshi, umumiy sog‘lig‘i, boshqa kasalliklari, qabul qilayotgan dorilari va individual xususiyatlari turlicha. Shuning uchun boshqa bir insonga yordam bergan usul siz uchun to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

KATTA O‘ZGARISHLAR KICHIK ODATLARDAN BOSHLANADI

Sog‘lom hayotga o‘tish uchun hayotimizni bir kunda butunlay o‘zgartirish shart emas. Bugun ko‘proq piyoda yurish mumkin. Ertaga ovqatlanish tartibiga e’tibor berish imkoni bo’lar. Keyingi haftada profilaktik ko‘rikdan o‘tish haqida o‘ylab ko’ring. Eng muhimi, bu harakatlar vaqtinchalik emas, doimiy odatga aylanishidir.

JSST profilaktikaga katta e’tibor beradi: tamaki chekish, spirtli va gazli ichimliklar iste’molini kamaytirish, jismoniy faollikni oshirish, sog‘lom ovqatlanish va boshqa xavf omillarini nazorat qilish yuqumsiz kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Kasallik eshik qoqishini kutmay, sog‘lig‘imizni bugundan asraylik!

Ma’mura ERGASHEVA,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasi assistenti.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

10-SENTABR

Lapas ALIBEKOV – (1938-2020) Urgut tumanida tug‘ilgan. O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, professor.

Komil MO‘MINOV – (1951-2021) Oqdaryo tumanida tug‘ilgan. Qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor.

Najmiddin VAHOBOV – 1940-yilda Urgut tumanida tug‘ilgan. O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi.

12-SENTABR

Furqat MIRZAYEV – (1966-2015) Toyloq tumanida tug‘ilgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, xonanda.

Ibroyim KARIMOV – 1970-yilda Samarqand shahrida tug‘ilgan. Sambo, dzyudo, kurash bo‘yicha sport ustasi. O‘zbekiston, Osiyo, xalqaro sport musobaqalari g‘olibi va sovrindori, xalqaro toifadagi hakam, Oliy toifadagi murabbiy.

13-SENTABR

Furqat TOJIYEV – (1913-2001). Kattaqo‘rg‘on shahrida tug‘ilgan. Kimyogar olim. O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi.

Shuhrat QO‘SHOQOV – 1943-yilda Namangan viloyatining Norin tumanida tug‘ilgan. Falsafa fanlari doktori.

Azim QODIROV – (1955-2021) Kattaqo‘rg‘on shahrida tug‘ilgan. O‘zbekiston Jurnalistlari uyushmasi a’zosi.

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada ikki marta - chorshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

2027-yil uchun davlat budjeti mablag‘lari hisobidan tayanch doktoranturaning quyidagi yo‘nalishlari bo‘yicha

QABUL E’LON QILADI

TAYANCH DOKTORANTURA:

08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti – 1 o‘rin;

08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti – 3 o‘rin;

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit – 3 o‘rin;

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit – 2 o‘rin;

08.00.11 – Marketing – 1 o‘rin;

08.00.13 – Menejment – 2 o‘rin;

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya – 1 o‘rin.



Talabgorlar hujjatlar topshirishni Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi innovatsion rivojlanish agentligining www.daraja.ilmiy.uz saytidagi “Talabgorlar” menyusi orqali amalga oshiradi.

Hujjatlar 2026-yil 15-sentabrdan 15-oktabrgacha qabul qilinadi.

BIZNING MANZIL: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 9.
Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi.
Murojaat uchun telefon: +99866-233-28-38.

DA’VOLAR BO‘LSA...

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Kamalov Mamarajabga (2020-yil 9-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Xodiyev Raxmatjon Xamidovichga (2025-yil 19-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 80-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasida marhum Xujakulov Abdixakimga (2025-yil 26-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o‘g‘li notarial idorasida marhum Xaydarova Zaxro Saftarovnaga (2025-yil 21-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Davronov Mahmud Hasan o‘g‘li notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag‘rikenglik ko‘chasi, 4-uy.

* * *

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Sa’dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Mardonov Abrorga (2022-yil 27-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Sa’dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko‘chasi.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mirzayev Hamid Azimurodovich notarial idorasida marhum Urunov Komil Axtamovichga (2025-yil 1-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mirzayev Hamid Azimurodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo‘l ko‘chasi, 9-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasida marhum Nazarov Parxad Djalalovichga (2003-yil 11-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

BEKOR QILINADI

Samarqand shahridagi Raimov Shuxrat Kadirovich yakka tartibdagi tadbirkorining (JSHSHIR: 30701933820071) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Samarqand tumanidagi “Diyor” mahalla fuqarolar yig‘inining dumaloq muhri yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

Sahnalashtirilayotgan spektakllar bugungi davr ruhiga mosmi?

Zarafshon

TEATRLARDA YANGI SPEKTAKLLAR



Tomoshabinni faqat bezakdor sahna yoki mashhur asar bilan hayratda qoldirib bo‘lmaydi. U hayotiga daxldor muammolar, zamondoshlar taqdiri, insoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, ma’naviyat va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan g‘oyalarni ko‘rishni istaydi. Shu bois har bir spektakl nafaqat badiiy jihatdan yuksak, balki bugungi kun bilan hamnafas bo‘lishi zarur.

Har yili davlat teatrlarida rejaga muvofiq kamida to‘rtta jahon dramaturgiyasining sara namunalari, milliy va zamonaviy asarlar, musiqali sahna ishlari, bolalar uchun mo‘ljallangan spektakllar hamda tarixiy va zamonaviy mavzulardagi yangi asarlarni sahnalashtirish belgilangan.

Xo‘sh, sahnalashtirilayotgan spektakllar bugungi davr ruhiga qay darajada mos? Ular insonni o‘ylashga, hayotga boshqacha nigoh bilan qarashga undayaptimi? Tomoshabin teatrdan qanday taassurot olyapti? Bu savollarga viloyatdagi teatrlar misolida javob izladik.

Viloyat musiqali drama teatri Samarqanddagi eng yirik teatrlardan biri bo‘lib, joriy yilning o‘tgan davrida ikkita yangi spektakl tomoshabinlar e’tiboriga havola etildi. Jumladan, Minajatdin Qutlimuratov qalamiga mansub “Halollik vaksinasi” asari rejissyor Iskandar Sultanov tomonidan sahnalashtirilgan bo‘lib, unda jamiyatdagi korrupsiya illati, uning inson taqdiri va jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’siri ta’sirchan sahna yechimlari orqali ochib berilgan. Spektakl halol mehnat, pok vijdon, adolat va mas’uliyat kabi ezgu qadriyatlarni targ‘ib qilib, tomoshabinlarni korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lishga undaydi. Asarda hayotiy voqealar va ta’sirchan obrazlar orqali har bir fuqaroning halollik tamoyillariga sodiq bo‘lishi jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekani ifoda etilgan.

Z.Mirzayevning “Qahrida ham mehr bor edi” essesi asosida Dildora Mardonova insenirovkasi bo‘yicha sahnalashtirilgan “Ibrat” spektakli esa bugungi kun qahramonining yorqin va ta’sirchan obrazini ochib berishga xizmat qiladi. Asarda fidoyilik, vatanparvarlik, insonparvarlik va yuksak ma’naviy fazilatlar targ‘ib qilinib, hayot mashaqqatlarini matonat bilan yengib o‘tgan inson taqdiri sahna tilida ta’sirchan ifoda etilgan. Spektakl tomoshabinlarni ezgulik, mehr-oqibatga, burch va mas’uliyatni chuqur anglashga chorlab, ayniqsa, yosh avlod uchun ibrat maktabi vazifasini o‘taydi. Sahna asarida qahramonning hayot yo‘li orqali sabr-toqat, jasorat va insoniylik kabi yuksak fazilatlar ulug‘lanadi.

– Har bir yangi spektakl ustida ish boshlar ekanmiz, oldimizga, avvalo, bugungi zamon qahramonini sahnada qanday gavdalantirish va jamiyatdagi og‘riqli muammolarga teatr tili bilan qanday yechim ko‘rsatish vazifasini qo‘yamiz, – deydi viloyat musiqali drama teatri bosh rejissyori Shuhrat Sanaqulov. – “Halollik vaksinasi” hamda “Ibrat” spektakllari aynan tomoshabinni fikrlashga, dolzarb ma’naviy-axloqiy masalalarga befarq bo‘lmaslikka chorlashi bilan qimmatlidir. Bu asarlarda inson taqdiri, halollik, mas’uliyat, fidoyilik va vatanparvarlik kabi umuminsoniy qadriyatlar badiiy yechimlar orqali yoritilgan. Teatr nafaqat madaniy hordiq maskani, balki odamlarni ezgulikka, yuksak ma’naviyatga undaydigan tarbiya o‘chog‘i hamdir. Tomoshabinning spektakldan olgan taassuroti va hayotiy xulosasi biz uchun eng katta yutuq hisoblanadi.

Viloyat rus drama teatrida qozog‘istonlik rejissyor tomonidan bolalar uchun “Koza-dereza” ertak-spektakli hamda teatr bosh rejissyori Axmatillo Niyozov tomonidan Abdulla Avloniy qalamiga mansub “Advokatlik osonmu” asari yuksak mahorat bilan sahnaga olib chiqildi. “Advokatlik osonmu” spektaklida jamiyatimizda uchraydigan eng og‘riqli nuqtalardan biri qarzga botib to‘y qilish, bema’ni orzu-havaslar ortidan quvib, qarzlarni uzish ilinjida xorijda sargardon bo‘lib yurgan insonlarning og‘ir qismati tasvirlanadi.

– Shunday klassik asarlar borki, ular necha yillar o‘tsa-da, o‘zining hayotiy ahamiyati va tarbiyaviy qimmatini yo‘qotmaydi, – deydi A.Niyozov. – Xususan, Abdulla Avloniyning “Advokatlik osonmu” asarida tanqid qilingan kibr, manmanlik, soxta obro‘ ketidan quvish, mas’uliyatsizlik kabi illatlar, afsuski, bugungi jamiyatimizda ham uchrab turibdi. Spektaklni sahnalashtirishdan asosiy maqsadimiz ana shu muammolarni teatr tili orqali tomoshabinga ta’sirchan tarzda yetkazish, har bir insonni o‘z xatti-harakatlari haqida o‘ylashga undashdan iborat bo‘ldi. Asar voqealari orqali o‘ylamay qilingan qarorlar va yengiltaklikning qanday oqibatlarga olib kelishi ochib beriladi.

Viloyat qo‘g‘irchoq teatrida yil boshidan buyon xorijlik rejissyorlar hamkorligida to‘rtta yangi spektakl tayyorlanib, kichik yoshdagi tomoshabinlarga taqdim etildi. Teatr adabiy bo‘limi mudiri Mehrangiz Tohirovaning ta’kidlashicha, gruziyalik rejissyor Nikolas Sobashvili tomonidan X.Andersen asari asosida sahnalashtirilgan “Qizil qalpoqcha”, qozog‘istonlik rejissyor Samat Altayevning “Mumi-trollar” (sarguzasht ertak), Tohir Muratov qalamiga mansub, I.Aripova tomonidan rus tilida sahnalashtirilgan “Donishmand Tomate” hamda Zuhra Eshpo‘latova rejissyorligida N.Suponin asari asosida sahnalashtirilgan “Badjahl quyoncha” spektakllari bolajonlarga manzur bo‘ldi.

– “Mumi-trollar” sarguzasht spektaklini nevaralarim qiziqish bilan tomosha qildi, – deydi Samarqand shahrida yashovchi Feruza Xalikova. – Asar bolalarni sehrli qish olamiga olib kiradi. Uyquga ketmay uyg‘oq qolgan Mumi-trol hamda uning yangi do‘stlari Tuu-Tikki, M.Myu, Olmaxon, Yertesharlar va Xemulning qorli va muzli tepaliklardagi sarguzashtlari orqali bolalarga do‘stlik, jasorat va tabiatni qadrlash tushunchalari quvnoq qo‘shiqlar hamda raqslar vositasida yetkaziladi.

Kattaqo‘rg‘on shahar drama teatrida yilning o‘tgan davrida uchta yangi sahna asari premyerasi bo‘lib o‘tdi. Jumladan, Shavkat Pardayev asari asosida Qutlig‘murod Yakubov sahnalashtirgan “Afandizoda” satirik komediyasi, Nasrullo Qobilning “Oriyat” asari asosida Mamaniyoz Ro‘ziyev sahnalashtirgan asar, Qo‘chqor Norqobil qalamiga mansub “Baxtning bozori bormi?” dramasi asosida rejissyor Doston Haqberdiyev tomonidan sahnalashtirilgan spektakllar tomoshabinlarga namoyish etildi.

– Davr o‘zgargani, texnologiya rivojlangani sari tomoshabinning zamonaviy asarlarga bo‘lgan talabi ham o‘sib bormoqda, – deydi Kattaqo‘rg‘on shahar drama teatri aktyori O‘tkir Ochilov. – Shu bois har bir spektakl ustida katta mas’uliyat bilan ishlaymiz. Biz uchun eng muhim mezon – asarning tomoshabin qalbidan chuqur joy olishi, uni o‘ylantirishi va teatrga yana qayta kelish istagini uyg‘otishidir. Ayniqsa, xorijlik rejissyor va aktyorlar bilan ijodiy hamkorlikda sahnalashtirilayotgan asarlar, zamonaviy hamda klassik dramaturgiyaga yangicha talqin berish, sahna madaniyati va aktyorlik mahoratini yanada yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Teatr nafaqat madaniy hordiq maskani, balki jamiyatdagi dolzarb muammolarni xolis va ta’sirchan tarzda yoritadigan, insonni fikrlashga va xulosa chiqarishga undaydigan ma’naviy minbar. Ana shu vazifani bajarish uchun ijodiy izlanish va yangilikka intilishlarni davom ettiramiz.

Sarvinoz MAMANOVA,
viloyat musiqali drama teatri adabiy qism mudiri.

Olimpiya sport turlarini rivojlantirish, yoshlarning ommaviy sportga qamrovini oshirish, iqtidorli sportchilarni milliy terma jamoalarga saralash maqsadida mamlakatimizda o‘tgan yildan boshlab uch bosqichli «Yangi O‘zbekiston olimpiya cho‘qqilari» hamda «Prezident olimpiadasi» musobaqalari o‘tkazilmoqda.

“Prezident olimpiadasi”:

O‘tgan mavsumdagi qoniqarsiz natijalar bu yil yaxshilanadimi?



Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yo‘lga qo‘yilgan mazkur musobaqalarning o‘tgan yilgi bahslarida viloyatimizdan 222 nafar sportchi ishtirok etib, 8 ta oltin, 6 ta kumush va 17 ta bronza medalini qo‘lga kiritdi hamda respublikada umumjamoa hisobida yettinchi o‘rinni egalladi. Biroq viloyatimizda sportchilar uchun yaratilgan imkoniyatlar, zamonaviy sport infratuzilmasi, mavjud moddiy-texnika bazasi hamda minglab yoshlarning olimpiya sport turlari bilan shug‘ullanayotganini inobatga olsak, bu ko‘rsatkichlar mavjud salohiyatdan to‘liq foydalanilmayotganini, sportchilarni tayyorlash, seleksiya qilish va musobaqalarga maqsadli tayyorgarlik ko‘rish tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Misol uchun, viloyatdagi sport muassasalarida “Prezident olimpiadasi” dasturidagi sport turlari bo‘yicha 18 ming nafardan ziyod sportchi muntazam shug‘ullanayotgan bo‘lsa-da, musobaqalar yakunida bor-yo‘g‘i 31 ta medal qo‘lga kiritilgani achinarli holat. Shuningdek, ayrim sport maktablarida yuzlab sportchilar tayyorlanayotgan bo‘lishiga qaramasdan, respublika final bosqichiga birorta ham sportchi yo‘llanma olmagan. Xususan, Payariq tumani 2-sport maktabida 329 nafar, Urgut tumani 2-sport maktabida 470 nafar sportchi shug‘ullanishiga qaramay, ulardan hech biri musobaqaning respublika finalida qatnashmagan. Urgut tumani 1-sport maktabida 846 nafar, Qo‘shrabot tumani sport maktabida 871 nafar, Gimnastika sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabida 141 nafar, Samarqand shahar 2-sport maktabida 692 nafar sportchidan atigi bir nafardan va Samarqand tumani 1-sport maktabida 858 nafardan ikki nafargina sportchi respublika final bosqichida ishtirok etgan.

Medallar taqsimoti ham ayrim muassasalar hisobiga shakllangan. Respublikada olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari aksariyat viloyatlarda bittadan bo‘lsa, viloyatimizda ikkita shunday muassasa bor. Ammo Samarqand olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi “Prezident olimpiadasi” finalida 10 ta (finalda atigi 2 ta oltin), Toyloq olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi esa 6 ta (finalda bitta ham oltin medal ololmagan) medalni qo‘lga kiritgan. Ishtixon hamda Past Darg‘om tumanlari 2-sport maktablari uchtadan medalga ega chiqqan bo‘lsa, Samarqand shahridagi o‘yin turlari va yengil atletika, gimnastika hamda suv sporti turlariga ixtisoslashtirilgan sport muassasalari, shuningdek, Narpay, Payariq, Samarqand shahar 1-sport maktablari, Paxtachi, Kattaqo‘rg‘on, Nurobod, Bulung‘ur, Samarqand shahar 2-sport maktablari, Samarqand tumani, Urgut 1-sport maktablari, Qo‘shrabot, Payariq va Urgut 2-sport maktablari birorta ham medalli natija qayd etmagan.

Xo‘sh, bu yil natijalar qanday yaxshilanadi, muammolar bartaraf etildimi?

– Tizimdagi mavjud muammo va kamchiliklar Sport vazirligi ishchi guruhi hamda boshqarma mutaxassislari tomonidan o‘rganilib, ularni bartaraf etish choralari ko‘rilmoqda, – deydi viloyat sport boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Olim Sobirov. – Xususan, sport muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy sport jihozlarini barpo etish, mavjud infratuzilmani ta’mirlash va yangilash, mashg‘ulotlar sifatini oshirish, sport maktablari direktorlari va trenerlar malakasini oshirish, aholi, ayniqsa, yoshlarni ommaviy sportga keng jalb etish bo‘yicha tizimli ishlar davom etyapti. Yaqinda Kattaqo‘rg‘on, Qo‘shrabot, Toyloq, Past Darg‘om tumanlari hamda Kattaqo‘rg‘on shahridagi sport maktablari faoliyati o‘rganilib, terma jamoalarga sportchilar yetkazib berish, ularning respublika va xalqaro musobaqalarda ishtirokini ta’minlash, murabbiylarning ish samaradorligi va seleksiya ishlari tanqidiy tahlil qilindi. Qoniqarli natija ko‘rsatmayotgan Toyloq va Qo‘shrabot tumanlari sport maktablari direktorlari ishdan olinib, sohani rivojlantirish bo‘yicha aniq reja va tashabbuslarga ega yangi rahbarlar tayinlandi.


Shuningdek, «Yangi O‘zbekiston olimpiya cho‘qqilari» musobaqalarining quyi bosqichlari yuqori saviyada tashkil etildi. Bu yilgi mavsumda 13-14 yoshli sportchilar (badiiy gimnastika bo‘yicha 11-12 yoshli) 21 ta olimpiya sport turlari bo‘yicha bellashadi. Musobaqaning birinchi bosqichi mart-aprel oylarida “Tuman va shahar hokimi olimpiadasi”, ikkinchi bosqichi may-iyun oylarida “Viloyat hokimi olimpiadasi” shaklida o‘tkazildi. Endi oktabr-noyabr oylarida musobaqaning uchinchi final bosqichi “Prezident olimpiadasi” tarzida o‘tkaziladi. Final bahslarida 19 sport turi bo‘yicha 226 nafar kuchli va mahoratli sportchilar “Prezident olimpiadasi”ning respublika final bosqichida ishtirok etish yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi. Shuningdek, voleybol sport turi bo‘yicha o‘g‘il va qizlar jamoasi ham respublikada viloyatimiz sharafini himoya qiladi. Ayni vaqtda sportchilar olimpiadaning final bellashuvlariga tayyorgarlikni davom ettirmoqda.

Fazliddin RO‘ZIBOYEV.

Ehtirom

HALOVAT NASHIDASI

Yoshim to‘qsonni qoralab qoldi. Lekin atrofimdagi farovon turmushni, to‘kinlikni, odamlarning mehr-muhabbatini ko‘rib, sezib o‘zimni yoshargandek his qilaman. Xususan, keyingi o‘n yil ichida mamlakatda inson taqdiriga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi har bir nuroniyda ana shunday kayfiyatni paydo qilganligi ham bor gap.



Xalq tili bilan aytganda O‘zbekiston dunyo bilan bo‘ylashadigan bo‘ldi. Muhimi, hazrati insonning qadri yuksaldi. Zero, keksalarga hurmat, yoshlarga rag‘bat topgan davlatning kelajagi porloqdir. Qolaversa, yurtdoshlarimiz ham hayotimizni faqat puxta bilim, kerakli kasb-hunar, hamjihatlik hamda fidoyilik farovon qilishini anglab yetdilar. Birgalikda oilaviy suhbatlar qurayotgan, sayohatlarga borayotgan yoxud ertalab jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanayotgan oilalarni ko‘rib, baxri dilim ochiladi. Chunki dunyoni ko‘rgan inson sifatida o‘zimning yurtimda ham ana shunday turmush tarzi qaror topishini ko‘p orzu qilganman.

Zero, jadid bobom Saidrizo Alizoda va uning safdoshlari ham millatimizning, Turkiston elining ana shunday ma’naviyatli va baxtli bo‘lishini istashgan. Ular uzoq davr xalqimizning ma’rifatga bo‘lgan nuqtai nazarini chuqurlashtirishga intilganlar. Bugun davlatimiz rahbari ana shu g‘oyalar asosida yangi takliflar bilan chiqayotgani, xayrli ishlarga qo‘l urayotgani yuragimga taskin bag‘ishlaydi. Demak, orzumand ota-bobolarimizning niyatlari amalga oshyapti.

Dunyodagi juda ko‘p dam olish maskanlarida bo‘lganman. Lekin bu gal aynan O‘zbekistonda, Toshkent viloyatidagi «Mineral suvlar» sanatoriysida dam olib, chinakamiga quvondim. Negaki, mamlakatimizdagi sanatoriy va dam olish maskanlari bugun boshqa iqlimlardagi bunday maskanlardan qolishmaydi. Bundan tashqari, tabiati huzur bag‘ishlaydigan deyarli barcha joylar ziyoratgohga, odamlar hordiq chiqaradigan go‘shalarga aylantirilmoqda.

Taskinim shuki, tinch, osoyishta, lekin har kuni yangiliklar yaratilayotgan jannatmakon yurtim bag‘rida hordiq chiqaryapman. Taskinim shuki, atrofimdagilarning ham xotiri jam, dili beg‘am. Taskinim shuki, xizmat ko‘rsatayotgan odamlarning madaniyati, muomalasi, shirin so‘zlari va bu yerdagi muolaja vositalari taningizga, dilingizga xush yoqadi. Taskinim shuki, inson qadri ulug‘lanyapti. Ana shu taskin vujudimga halovat bag‘ishlaydi. Va, shunday yurtda yashayotganligimdan faxrlanaman.

Bunday farovon hayotimizga ko‘z tegmasin!

Farhod ALIZODA,
Saidrizo Alizoda uy-muzeyi direktori.

MATBUOT UYI
Zarafshon
Самаркандский вестник

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 313 nusxada chop etildi. Buyurtma 347. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E’LONLAR:** (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:
soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi:
soat 19:00

Gazetamizning ayrim materiallariga surat tanlashda sun’iy intellekt imkoniyatidan foydalaniladi

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV.
Navbatchi: D.TO‘XTAYEV.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda